Science technology & Digital finance	OCTOBER,2023
ISSN:2992-9199	https://supportresult.uz/index.php/stdf/index

Science technology & Digital finance

journal homepage: https://supportresult.uz/index.php/stdf

PROMOTION OF MORAL QUALITIES IN THE PROCESS OF EDUCATIONAL AND CULTURAL DEVELOPMENT

[1]Ortiqov Olimjon Khamidovich, [2]Mamatqulov Ziyadbek
[1]Senior lecturer of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.
[2]Student of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan.

ПОВЫШЕНИЕ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ПРОЦЕССЕ ВОСПИТАНИЯ И РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ

[1]Артыков Олимжон Хамидович, [2]Маматкулов Зиодбек
[1]Старший преподаватель Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.
[2]Студент Джизакского филиала Национального университета Узбекистана.

TA‘LIM VA MADANIYAT TARAQQIYOTI JARAYONIDA AXLOQIY FAZILATLARNI YUKSALTIRISH

[1]Ortiqov Olimjon Xamidovich, [2]Mamatqulov Ziyodbek
[1]O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o‘qituvchisi.
[2]O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi.

abstract

The important means of education of a perfect person, a harmonious personality-the essence of upbringing, upbringing, feelings of poverty, patriotism, the relevance of the formation of ideological and spiritual immunity are expressed in them.

аннотация

Из важнейших средств воспитания совершенного человека, гармоничной личности выражена сущность воспитания, воспитания, актуальность формирования в них чувства нищеты, патриотизма, идейно –духовного иммунитета.

annotatsiya

Komil insonni, barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim vositalaridan ta’lim–tarbiya, tarbiya mohiyati, faqirlik, vatanparvarlik tuyg’ularini, ularda mafkuraviy-ma’naviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi ifodalangan.

Keywords:

Science, education, morality, modernization, means of upbringing, individualism, healthy Generation, Science, spiritual threat.

Ключевые слова:

Наука, образование, мораль, модернизация, средства воспитания, индивидуализм, здоровое поколение, наука-просвещение, духовная угроза.

Kalit so'zlar:

Fan, ta’lim, axloq, modernizatsiya, tarbiya vositalari, individualizm, sog’lom avlod, ilm-ma’rifat, ma’naviy tahdid.

© 2023. *Ortiqov Olimjon Khamidovich, Mamatqulov Ziyadbek.*

Kirish

Jahonda global o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bu davrida ijtimoiy hodisaning har bir mohiyatini yanada chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish lozim. Xalqimizga xos bo‘lgan milliy g‘oya umummilliy dastur bo‘lib xizmat qiladi. Zero, global o‘zgarishlar davrida —Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarning ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish, ularni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash. jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lmog‘i lozim.

Bugungi davr jahon xalqlari hayoti tez suratlarlarda o‘zgarib borayotgan, shu kungacha boshidan kechirgan jamiyat bosqichlaridan tubdan farq qiladigan o‘ta tezkor, shiddatli va butun murakkabliklarni to‘la namoyon qilayotgan tarixiy davrda yashamoqda. Keyingi yillarda "globallashayotgan dunyo", "global jamiyat", "global integrasiya", global taraqqiyot" kabi so‘zlar, tushunchalar tildan tushmay qoldi. Insoniyat yangi bir voqelikka - global o‘zgarishlar davriga duch kelib, uni anglashga, undagi ijobiy jihatlardan unumli foydalanib taraqqiyotini ta’minlashga intilmoqda. Ammo global o‘zgarishlarni faqat ijobiy voqelik sifatida qarashga hali erta, u ziddiyatlarga to‘la, goho esa milliy taraqqiyotga, milliy madaniyatga, milliy g‘oyaga salbiy ta’sir etuvchi belgilarga ega.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida tarbiyaning mazmunli va yo‘nalishi umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi asosida belgilangan. Aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan baquvvat, milliy ma’sulyat tuyg‘usini anglaydigan o‘quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazish mamlakatni mustaqil va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Milliy tarbiya umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Ta’lim tarbiya uslubiyoti maktablari tarkib topib rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Azaliy qoida mavjudki yoshlar tarbiyasi, ularni ilmli va har tomonlama etuk qilib voyaga etkazish barcha zamonlarda muhim vazifa hisoblangan. Mutafakkirlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan bunday nodir asarlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni salbiy illatlardan asrab, axloqan pok, haqiqiy inson bo‘lib etishishlariga undagan. Bugun ma’naviyat va yoshlarningaxloqiy tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, bu haqidagi bilimlarimizni takomillashtirish, dunyoqarashimizni kengaytirish hamda yoshlarni ana shu yo‘lda birlashtirish, kamol toptirishda milliy g‘oya xususida to‘xtalish muhimdir. Chunki taraqqiyot va texnika asri deb atalmish XXI asr yoshlari qalbida ma’naviy boylik, komil inson darajasiga erishish, yurt-u xalqqa sadoqat hamda muxabbat tuyg‘ularini shakllantrishdek ezgu maqsad yotadi. Faxrlanarli tomoni shundaki, bunday muqaddas tushunchalar yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va bunyodkorlik ishlari bilan uyg‘unlashib bormoqda. Adabiyotshunos olim Abdurauf

Fitrat "Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o'xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar", deydi. Inson axloqiy fazilatlari samarasi borasidagi bildirilgan fikrlardan shuni anglash mumkinki, tashqi olamning go'zalligi inson ichki olamining go'zalligi samarasidir-tashqi olamning vayronligi inson ichki olamining xunukligidir. Bu boradagi insonning ezgi fazilatlarini ro'yobga chiqarish borasidagi yosh avlodning ta'lim-tarbiya jarayonlari uzluksizligi amalda keng yo'lga qo'yilganligini ijobiy ishlardan deb baholash mumkin. Ayni paytda yana va yana global ko'lamlarda aynan yoshlar tarbiyasida yechimini kutayotgan muammolar mavjudligini tan olishimiz, e'tirof etishimiz kerak. O'zi va o'zgalarning taqdiriga, kelajagiga befarqlik, shafqatsizlik, ishyoqmaslik, halol mehnatdan bo'yin toblash, axloqsizlik, yengil-yelpi va boshqalar hisobiga kun kechirish, giyohvandlik, o'g'irlik, jinoyatchi guruhlar, ekstremistlar vaterroristlar faoliyatida ishtirok etish ham jamiyatning aynan navqiron yoshdagi a'zolarini o'z domiga tortayotgani sir emas. Ilm o'rganish, ma'lumot olish uchun sharoit yaratib berayotgan axborot texnologiyalari, jumladan, Internet ham muammolar manbaiga aylanib borayotganini ta'kidlash zarur. Navoiy xazratlari o'z misralarida: Ilmni kim vositai joh etar, o'ziniyu xalqni gumroh etar deya ilmni noinsoniy yo'lda ishlatuvchi kimsalar nafaqat o'zini, balki xalqni–boshqalarni ham sarson qilishidan bizni ogoh etadi. Ana shu ma'noda bugungi mafkura poligonlaridagi muxoliflarimizning insoniy jihatlari, ma'rifati va ma'naviyati borasida har qancha bahslashishimiz mumkin-u, biroq ularni yoppasiga "o'qimagan, ilmsiz va omi" deb o'ylasak, qattiq yanglishamiz. Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'lishi ayonki, bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz lozim hisoblanadi. Mustaqil yurtimizda yuritilayotgan, ertangi kun egalarini har jihatdan kamolga yetkazish siyosati zamirida ham aynan mana shu hayot haqiqati – bugungi dunyoning dolzarb talablari turibdi. Zero, mustaqil hayotga kirib kelayotgan, kuch-g'ayratga to'la va orzulari bepoyon yoshlarga ayni pallalarda amaliy yordam, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish – o'zining ertangi kuniga, farzandlari taqdiriga befarq bo'lmagan xalqning eng muhim vazifasi, buyuk kelajak uchun bunyod etadigan mustahkam poydevori hisoblanadi.

Xulosa

Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatning ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [8] zarur bo'lsa, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz" [9] deb fikr bildirganlar. Darhaqiqat, globallashuv yaratayotgan imkoniyatlardan hozirgi kunda ma'naviy bo'shliqni to'ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy markazlar foydalanmoqdalar. Buning oqibatida insoniyat tomonidan katta ma'naviy yo'qotishlar, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotganini, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarziga xavf solayotganini alohida qayd etish lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T., O'zbekiston: NMIU, 2016. B-14.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T., O'zbekiston: NMIU, 2016. B-11.

3.Ortikov O. K. et al. Views of eastern thinkers on the development of intellectual abilities in the scientific heritage //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. –2021. –T. 11. –No. 1. –C. 211-214.

4.Boltaeva M. J., Kh O. Ortikov. Features of the scientific heritage of eastern thinkers about the attitude of parents to the child //Society and innovations. Special. – 2021. –No. 2. –C. 469-474.

5. Kamolov D. Davlat boshqaruviga oid axloqiy qarashlar //Адабиёт учқунлари. – 2021.

6. Kamolov D. R. O. G. L. O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIYA VA AXLOQNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. NUU Conference 2. – C. 348-352.

7. Kamolov Dostonbek, "SPIRITUAL AND MORAL ENVIRONMENT OF SOCIETY", *SSAI*, vol. 1, no. 2, pp. 128–133, Oct. 2023, Accessed: Oct. 24, 2023. [Online]. Available: https://supportresult.uz/index.php/ssai/article/view/89

8. O‘G‘LI K. D. R. ON THE WAY TO THE DIGITAL EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN //“O ‘zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o ‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023.

9. O‘G‘LI K. D. R. O'zbekiston raqamli ta'lim tizimi yo'lida //“O ‘zbekiston Milliy universitetining ilm-fan rivoji va jamiyat taraqqiyotida tutgan o ‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 2023.

10. Tolliboyev D. MAMLAKATIMIZDA YOSH OTA-ONALARNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHNING DOLZARBLIGI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 38-41.

SUPPORT RESULT
JOURNALS